УДК: 894.3

BEHBUDIY IJODIDA MILLAT VA MILLIYAT G‘OYASINING TALQINI

N.H. Avazov

Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkiston o‘lkasida yangi usuldagi maktab tashkil etishi, millatning taraqqiyoti uchun matbuotga asos solishi, uning “Padarkush” dramasi milliy g‘oyani ishlab chiqishga asos bo‘lganligi ko‘rsatiladi. Behbudiy jadidchilik harakatining, jadid adabiyotining, dramaturgiyaning paydo bo‘lishi, shakllanishida katta xizmat qildi. Maqolaning maqsadi Behbudiyning millat taraqqiyotidagi o‘rnini ko‘rsatishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *millat, jadid, drama, milliy matbuot, Turkiston, taraqqiyot, ma’rifat.*

В статье утверждается, что Махмудходжа Бехбуди одним из первых открыл новометодную школу в Туркестанском крае, основал периодические издания для развития нации, что его драма "Падаркуш" послужила основой для формирования национальной идеи. Бехбуди внес большой вклад в формирование джадидского движения, а также джадидской литературы и узбекской драматургии. Целью статьи является показать место и роль Бехбуди в развитии национальной идеи.

Ключевие слова: *нация, джадид, драма, национальная печать, Туркестан, развитие, просвещение.*

Kirish

XX asr boshida Turkiston o‘lkasi chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganiga qaramasdan, o‘lkada milliy uyg‘onish davrini jadidlar boshlab berdi. Bu harakatning boshida jadid ziyolilari rahnamolik qildilar. Bu harakat ijtimoiy, tarixiy zarurat hamda ma’naviy ehtiyoj natijasida maydonga keldi. Mana shu ma’naviy ehtiyoj va tarixiy zarurat jadid adabiyotining asosiy vazifasini belgilab berdi [1. B. 5–20]. Uyg‘onish davri adabiyotida batamom yangi bir yo‘nalishdagi milliy publitsistika, milliy she’riyat, milliy hikoyachilik, milliy roman, milliy dramaturgiya milliy ongni yuksaltirishga, zamonaviylashtirishga va islohotlarni amalga oshirishga yo‘naltirildi.

Chor Rossiyasi tomonidan milliy zulm bo‘lishiga qaramasdan, jadidlar oldida mashaqqatli, qiyin, mas’uliyatli, qolaversa, zarur hamda sharafli bo‘lgan millat oldidagi vazifasi ularni faqat oldinga chorlar edi. Jadidlarning millat oldidagi mas’uliyatini amalga oshirishda mustabid tuzum to‘sqinliklari katta edi. O‘lkada millatning ahvoli zabun, ularning ruhiyati siniq, maishiy turmush tarzi bir ahvolda ekanligidan, ularning ahvolini tiklash, ma’rifatli va ilmli qilish zarurati mavjud edi. Jadid ziyolilarining zimmasida xalqni zamonaviy ilmdan boxabar qilish, ilmsizlik tanazzulga olib kelishini ko‘rsatish, millatning kelajagini fojiealardan asrab qolish ham qarz, ham farz edi.

Material va metodlar

Behbudiy ijodida millat va milliyat g‘oyasi talqinini tadqiq etish uchun taraqqiyparvar ijodkorning “Padarkush” va badiiy publitsistik asarlari: “Ehtiyoji millat”, “Millatlar qanday taraqqiy etarlar”, “Millat vazifasi”, “Millatga murojaat”, “Millatni kim isloh etar” asarlari tahlilga tortildi.

Muammoni o‘rganishda madaniy-tarixiy va qiyosiy-tipologik tahlil usullari qo‘llandi.

Natijalar va ularning tahlili

O.Sharafiddinov jadidlar va millat fidoyilari to‘g‘risidagi “Istibdod qurboni” maqolasida: “Jadid ziyolilari o‘rtasida XX asr boshlarida avj ola boshlagan ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy-madaniy harakat umumturkiy xarakterga ega edi va o‘z oldiga turkiy xalqlarni ijtimoiy rivojlanishning yangi, zamonaviy, samarali yo‘llariga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygandi. Jadidchilik, ayniqsa Turkistonda milliy uyg‘onish jarayonining boshlanishiga qudratli turtki bo‘ldi. Bu jarayon millatning bir yoqadan bosh chiqarishini, ahil bo‘lishini, birlashishini taqozo qildi. Jadidlar o‘z asarlarida “vatan”, “millat” tushunchalarini oldinga surdilarki, bu tushunchalar o‘sha sharoitda

xalqning ilg‘or kuchlarini, fikrlovchi qatlamlarini jipslashtiruvchi omil bo‘ldi. Jadidchilik XX asr boshlarida Turkistonda tom ma’nodagi inqilobiy harakat edi, faqat uning inqilobiyligi balki maorif-madaniyat tarqatish yo‘li bilan xalqning ongini uyg‘otib, ko‘zini ochib, tinch-totuv tarzda hayotni yangilash maqsadiga qaratilgan edi. Jadidlar uchun qurolli to‘ntaruvlar emas, tinch islohotlar muhim edi” [2. B. 76].

Jadidlar Turkiston o‘lkasidagi nohaqliklarga qarshi milliy va madaniy yuksalish, ozodlik hamda mustaqillik uchun nihoyatda keng qamrovli harakatlarni olib bordilar. Ular o‘z harakatlarida o‘lkaga xos bo‘lgan mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik fazilatlariga sodiq holda ishladilar. Ularning g‘oyasida Behbudiy o‘rtaga tashlagan “Haq olinur, berilmas” [3. B. 483] shiori qo‘llanilar edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy g‘oya, millat va milliyat masalalarini talqin qilishda jadidlarning karvonboshisi sifatida o‘zining qisqa hayoti davomida millat uchun zarur bo‘lgan ma’naviy meros qoldirib, muammoni bosqichma-bosqich amalga oshirdi.

Birinchidan, Turkiston o‘lkasida millat taqdirini hal qilishning asosi – maktablarni batamom isloh qilish tarafdori edi [3. B. 384]. Professor Zaynobiddin Abdurashidov ta’kidlaganidek, Turkiston o‘lkasida Mahmudxo‘ja Behbudiy yo‘lboshchiligidagi jadidlar ta’limni isloh qilish rejasini kiritdilar. Ular ta’lim milliy g‘oyaga asos bo‘lishini isbotladilar [4. B. 2].

Ikkinchidan, Behbudiy taklif qilgan milliy g‘oyani amalga oshirish va millatning rivojidagi islohotlarni amalga oshirishda milliy matbuot zarur edi. Gasprinskiyning fikriga ko‘ra, matbuot “millatning tili”dir. Millatning asosini uning ona tili tashkil qiladi. Millat o‘z tilida matbuotni o‘qishi, matbuot orqali g‘oyalarga ega bo‘lishi bu uning juda katta yutug‘i hisoblanadi.

Behbudiy “Samarqand” gazetasi shiorida: “Millat islohiyasining soadati va musulmonlar islohi, madaniyati funun zamoniyadan nafihlanmoqlari uchun yozilgan mahalliy turkiy va forsiy tilinda maqola va ashorlar bo‘lub, ammo yozilishi va tasxihi ixtiyorindadur” [5. B. 1], deb yozishining o‘zi ham matbuot sohasidagi milliy g‘oyani amalga oshirish to‘g‘risidagi qarashlarni belgilaydi.

Behbudiy matbuot minbaridan juda unumli foydalandi. Chor Rossiyasi mustabid tuzumi qilichini qayrab turgan paytida ham ularning matbuoti bo‘lgan “Turkiston viloyatining gazeti”dan maqolalari tushmadi. Jurnalistik va publitsistik mahoratining kuchliligidan mustabid tuzum rahbariyati ham o‘rni kelganida u bilan hisoblashishiga to‘g‘ri keldi. Behbudiyning fikricha: “har millatni ulamosi, ahli qalami millat uchun so‘ylar, yozar va havoiji milliya va zamoniyani o‘z millat mansubasig‘a bildirarlar. Zamona ag‘niyolari o‘z millatlarini zamoniycha kerakligi yo‘linda oqcha sarf etarlar” [3. B. 385]

Uchinchidan, Behbudiy millatning ehtiyoji sifatida milliy g‘oyani amalga oshirishda teatr uchun asar yaratish va teatrni tashkil qilishni asosiy maqsad qilgan edi. Shuningdek, bunda teatr orqali ilmsizlikning fojea, ofat ekanligini millatga ko‘rsatish maqsadi turardi. Bu esa Behbudiy uchun milliy g‘oya yo`lida kurashishning navbatdagi usuli edi. Milliy g‘oya Behbudiy dramasining asosini tashkil etdi. Professor N.Karimov aytganiday: “Behbudiy – jadid teatrining nazariyotchisi”dir [6. Б. 61].

Pyesada Behbudiy o‘z qarashlarini bayon qilgan. U yoshlar va kattalar o‘rtasidagi munosabatlarni badiiy ifoda qilish orqali o‘ziga xos yo‘l tutadi. Asosiy masala bo‘lgan ta’lim muammosini ko‘ndalang qo‘yadi. Asarda ota-onalar bilan bolalar o‘rtasidagi g‘oyat jiddiy, nozik, qaltis munosabatlar davr ta'lim-tarbiyasidagi bosh masala tarzida talqin qilinadi.

Yana shuni ta’kidlash maqsadga muvofiqki, Behbudiy “Padarkush” dramasini yozguniga qadar ham millat taqdiri va milliy g‘oyani ko‘rsatuvchi asarlar yozgan. Uning “Oq yelpog‘ichli chinli xotun” (1909), “Bir a’mo bolaning hasrati” (1914), “Bir vafolik zaifani xususida hikoya” (1903) [5. B. 106–136] kabi asarlari shular jumlasidandir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston o‘lkasida milliy maktablarning tashkil topishi va ularning o‘z ona tillarida o‘qitilishi tarafdori edi. Shuningdek, o‘lkada milliy maktablarning yaratilishi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar bilan birga, qoidalarni ham ishlab chiqdi. Ehtiyoj tufayli o‘zbek tilida darsliklar yaratishga e’tiborni qaratdi. Behbudiyning harakati yangi usuldagi ta’limni yaratish orqali milliy g‘oyani yaratish kerakligini va millatni isloh etilishini o‘rtaga qo‘ydi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, jadid maktablarida Navoiy, Fuzuliy, Sa’diy adabiyotimizning buyuk namoyandalari sifatida chuqur o‘rgatildi. Qolaversa, Behbudiyning millat taqdirini o‘zida aks ettirgan ijodidan ta’sirlanib, H.Muinning, A.Qodiriyning va Cho‘lponning asarlari yaratildi. Behbudiyni o‘zbek hikoyachiligining ilk namunasini yaratgan ijodkor sifatida ko‘ramiz.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o`z faoliyatining dastlabki davridan umrining oxiriga qadar millat qayg‘usi bilan yashadi. 1900-yillardan e’tiboran

1919-yilga qadar millat uchun sermahsul ijod qildi. Uning bironta publitsistik maqolasi, bironta asari yo‘qqi, millatning ehtiyojidan kelib chiqib yozilmagan bo‘lsa. Barcha asarlarida milliy g‘oya, millat va milliyatning ruhi hukmrondir. Jumladan, bu borada uning “Millat vazifasi” (1906), “Ehtiyoji millat” (1909), “Ehtiyoji millat” (1913), “Millatlar qanday taraqqiy etarlar” (1913), “Millatga murojaat” (1913), “Millat jaridasi” (1913), “Millatni kim isloh etar” (1914) kabi maqolalari alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, “Padarkush” dramasi, “Oq yelpog‘ichli chinli xotun”(1909), “Bir a’mo bolaning hasrati” (1914), “Bir vafolik zaifani xususida hikoya” (1903) [5. B. 106–136] asarlari, badiiy publitsistikasi, adabiy-tanqidiy maqolalari, sayohat xotiralari, “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnali sahifalaridagi hamda Turkiston o‘lka matbuotida Behbudiyning e’lon qilingan asarlari bevosita millatning taraqqiysi va milliy g‘oyani amalga oshirishga qaratilgandir.

Behbudiyning “Millat vazifasi” [7] maqolasi ikki qismdan iborat bo‘lib, 1906-yilda “Ulfat” gazetasining 18-, 20-sonlarida chop qilingan. Maqola o‘ta ko‘tarinki ruhda yozilgan. Dastlab maqolaning kirish qismida muallif: “Umrguzoronlik qilmoq uchun har millatning vaqtiga ko‘ra, bir vazifasi o‘lmoq darkordir” deb maqola maqsadini tushuntiradi. Behbudiy asl muddaoga o‘tishdan oldin o‘quvchiga solishtirish, oddiy tushuntirish orqali maqsadga boradi. Ya’ni, “har shaxs, har fardi bani odam o‘zicha, o‘z nafsi uchun birda vazifasi bordirki, bu vazifani ado qilmoqda kasallik, yalqovlik qilsa, ul kishining, albatta, o‘z umrguzorlig‘inda rohatligi bo‘lmaz, dunyolari tor, o‘zining hamjinslari orasig‘a xor bo‘lur”. Demak, inson hayotga kelar ekan, oldida vazifasi turadi. Agar u shu vazifani bajarishda o‘zini kasal kabi tutib, har bir ishida yalqovlik qilsa, uning yashash tarzida hech qachon olg‘a qarab siljish bo‘lmaydi. Ishlari o‘ngidan kelmasdan, o‘zining tanish-bilishlari orasida, jamiyatda insonlikdan chiqadi. Har bir inson hayotida ko‘zini kattaroq ochib, atrofga qaramog`i lozim. Shuningdek, inson millat oldidagi vazifasini bajarmasdan umrguzaronlik qilmoqchi bo‘lsa, uning millatga katta ziyoni tegadi hamda o‘zini va boshqalarni ham mushkulliklarga solib qo‘yadi, deb tushuntiradi buyuk ma’rifatparvar.

Behbudiy maqolaning kirish qismidan asosiy maqsadga o‘tib, millatning vazifasi nima ekanligi va millatning hayotda yaxshi yashashidan maqsadini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Bizning ota-bobolarimiz “shavkatlari ila jahonga mashhur” insonlar bo‘lganligini aytib, endilikda “musulmonlar karvoni ortda qoldi” deydi. Millatning holiga achinadi. Millatni o‘z vazifasiga sobit bo‘lishga chaqirib, masalaning yechimiga o‘tadi. Ya’ni quyidagi vazifalarni bajarish lozimligi ko‘rsatiladi:

Birinchidan, hamma mo‘minlar, ya’ni millatlar – “sart, no‘g‘oy, tatar, turkman, taranchi, dungani”lar bir-birlariga qarindoshdirlar. Ularning hammasi birlashib, hamjihatlashib ish yuritmoqlari lozim.

Ikkinchidan, barcha millatdoshlar birlashish asosida avlodlarini tarbiya qilmoqlari kerak. Ya’ni, tarbiyani “sarfi himmat” bilan amalga oshirmoqlari joiz. Shuning uchun boylarni ilm uchun, ya’ni kelajak uchun pul sarflashga chaqiradi hamda maqsadga qaratigan vazifani yuklaydi.

Uchinchidan, imomlar, tarbiya bilan shug‘ullanuvchi voizlarga ham quyidagi vazifalar ko‘rsatiladi: “xalqni amri ma’ruf qilub, nahyi anilmunkar qilub, xalqimizni fasod axloqdan va yomon ishlardan shar’an harom bo‘lg‘on fe’llardan man qilub, ilm va ma’rifatga va kasb va korga tashviq qilsun kerak. Millat rivoji uchun ulug‘-kichik hamma yakdil va yakvujud o‘lub, musulmon qarindoshlikni fikr va mulohaza qilib, dini islom ne’matini g‘animat bilub, har umurda bir-birimizga qo‘l suzub, kundan-kunga o‘z oramizda ulfat va muhabbatni orttirmakdur”.

To‘rtinchidan, taraqqiyparvar barcha millatdoshlar bir-birlarining so‘zlariga quloq tutib, maslahatlashib, bir-birlarining ahvollaridan xabardor bo‘lib, hamisha bir fikrda ish olib borishlarini odatga aylantirishga chaqirdi.

Beshinchidan, Yevropa mamalakatlaridan misollar keltirilib qiyoslanadi: “fransuzlar, anglizlar, amriqonlar” taraqqiy etganligi, ularning bu yo‘lda ko‘p mablag‘ sarf etganligi, jon fido etganligi, ular ta’lim va tarbiyada ilgarilab ketganligi, qolaversa, bugungi kamchiliklari to‘g‘risida tanqid ruhida matbuotlarda chiqish qilayotganligi tushuntiriladi. Turkiston millatini ham shunga chorlaydi.

Oltinchidan, agarda millatlar (musulmonlar) bir-birlariga qarindosh sifatida qarasalar, dushman tarafidan zulm va tahdidlar bo‘lganida bir tan va bir jon bo‘lsalar, ular dunyoda har qanday muammolarini yecha oladilar.

Yettinchidan, islomiyatda ilm va tahsil olmoq musulmonlarga farz qilingan. “Hikmat ilm va ma’rifatdir, mo‘minning yo‘qotgan haqqidir, qayda bo‘lsa shundan olur”. Muallif millatga o‘qib, o`rganib ilmga ega bo‘lib, islohotga borish zarur deydi. Shuningdek, “kim mol ila, kim hol ila, kim qilu qol ila til o‘lsun va jon ila ijtihod qilmoq jumla mo‘minlarning vazifalari va burchlaridir”. Ko‘rinadiki, ulug` ma’rifatparvar har bir fuqoraning

ilm bobida yo‘qotgan kuni uning haqqi yo‘qolishidir, deb ta’riflaydi.

Sakkizinchidan, millat o‘z vazifasini vaqtida odat etsa islohotlar tomon borishga sharoit yaratiladi. “Kiyina shukurlar o‘lsun millati hokima o‘lmodig‘imiz holda o‘z ehtiyojimizni ko‘rmak”, deydi.

Mutafakkir tomonidan millatga qo‘yilgan vazifalar bugungi kun uchun ham dolzarb hisoblanadi. Bugun ham millat o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lib, o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarini astoydil ado etishlari maqsadga muvofiq sanaladi.

Behbudiyning milliy g‘oyani amalga oshirishga qaratilgan “Ehtiyoji millat” maqolasi 1909-yil “Turkiston viloyatining gazeti”da [3. B. 344–348] va yana shu nomda ikkinchi marta “Ehtiyoji millat” [3. B. 384–386] nomi bilan 1913-yil “Samarqand” gazetasida chop etildi. Gazetaning shiorida “Millat islohi” deb yozib qo‘yilgan. Mustabid tuzum davrida bunday maqolani yozish uchun jasorat kerak edi. Demak, u millatning ehtiyoji uchun yozildi. Millatning ehtiyoji esa ayni paytda Behbudiy tomonidan baralla aytildi. Muallif maqolada boshqa maqolalari kabi kirish so‘z qilmasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri maqsad va muammoga o‘tadi.

Maqolada millatning oldida turgan birinchi masala ilm egallash ekani aytiladi. “Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur” [3. B. 384]. Muallif millat oldiga qo‘yayotgan kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa ilmni chuqur egallash orqali boshqa millatlarga oyoqosti bo‘lmaslik, ularning mustamlakasiga aylanmaslikdir. Qolaversa, u mustamlakachilikdan qutilish uchun uyg‘onishga chorlaydi.

Behbudiy dunyoda kechayotgan o‘zgarishlardan xabarsiz qolayotgani sababli hamda qonunlarni bilmaslik oqibatida millat Yevropa qonunlariga itoat qilishga majbur bo‘layotganini ta’kidlaydi. Aytadiki: “Qonun va Ovropo odatlarini bilmaganimiz uchun boyimiz bo‘lsun, qozi va milliy hukamomiz va aholimiz bo‘lsun, ko‘b tashvish va zarar ko‘rar. Zamona sobiqada faqat shariat bilmoq kifoya etardi. Endi qonun va zako‘nni bilmoq ham lozimdur. Shariat ilmi madrasalarga, qonun ilmi Rusiya dorilfununlariga o‘qilur. Dorulfununga kirmoq uchun, avvalo, o‘n sana gimnaziyaga o‘qumoq kerak. So‘ngra to‘rt sana dorulfunun o‘qub, andan huquqshunos, yurist, ta’bir joiz bo‘lsa, zamona faqihi bo‘lib chiqar. Sud mahkamalarinda, davlat doiralarinda kirib, har huquqshunos o‘z vakili va o‘z millati va o‘z toifasi va Vatani va o‘z davlatining nafiga so‘ylashur, mudofa qilur” [7. B. 384].

Ma’lumki, maqola yozilgan davr Chor Rossiyasining o‘lkada olib borayotgan milliy zulm siyosati kuchaygan paytlar edi. Davlat boshqaruvi harbiylashtirilgan rejim asosidagi tizimga ega edi. Davlat dumasi Chor hukumatining oliy organi bo‘lib, Behbudiy mahalliy aholidan vakil saylanib, mahalliy millat manfaati uchun kurashmog`i zarurligini aytadi. “Davlat Dumasinda biz, Turkiston musulmonlaridan shunday huquqshunos vakili bo‘lsa, bizni din va millatimiz nafiga harakat qilur. Ammo shunday odam bizda yo‘q. Davlat dumasi nari tursin, sudga va rasmiy mahkamalarga kirib, bizni mudofaa qiladurgan kishimiz yo‘q.. Boshimiz og‘risa, do‘xturga boramiz, ammo dardimizni aytmoqqa til yo‘q. O‘zimizda do‘xtur yo‘q” [8. B. 385].

Muallif millatning til bilishi, qonunlardan xabardor bo‘lishi uchun huquqshunos kadrlarni yetishtirish lozimligiga alohida e’tibor qaratdi. Chunki tilni bilmaslik natijasida fikrlarni yetkazish imkoni bo`lmaydi, qonunni bilmaslik natijasida “pul beramiz, yuguramiz, yana ishlar barbod, oxiri yo‘q” [8. B. 385].

Behbudiy tomonidan o‘lkada til o‘rganish, qonunshunos kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda muhandis, hisobchi va boshqa tijorat ilmi mutaxassislarini ham yetishtirmoq kerakligi muammo sifatida ko‘ndalang qo‘yiladi. Uning bir asr oldin kuyinib aytgan fikrlari hali-hanuz ahamiyatini yo‘qotgan emas. U millatdoshlarining o‘qib, huquqshunos, doktor bo‘lib millat manfaati yo‘lida xizmat qilishini istadi. Yurtimizda yetishtirilayotgan ko‘pgina meva mahsulotlari Yevropa bozorlariga yuborilayotgani, mahalliy millat vakillari mehnatni qilib, ammo arzon-garovga o‘z mollarini o`tkazayotganliklarini aytadi. “Turkiston mevasi, donasi, toshi, tufrog‘i, eski nimarsalari Ovrupo bozoriga ketar. Muni Ovrupo dallollari kelib, oz bahoga olib ketar, mehnatni biz qilurmiz, foydani ular ko‘rar. O‘z nimarsamizni Ovrupo bozoriga eltib, yaxshi bahoga sotaturgan bizda bir odam yo‘q” [3. B. 385]. Shuning uchun muallif: “sababi nadur – ilmsizlik” deydi. Bizda jahon bozorlarida savdo qiladiganlar yo‘qligidan, buning uchun ilm yetishmasligidan iztirobga tushadi.

Shuningdek, Behbudiy har bir masalaga alohida yondashadi. Mutafakkir faqat kamchiliklarni ko‘rsatish bilan chegaralanib qolmasdan, muammoning yechimini topishga harakat qiladi, uni quyidagicha ko‘rsatadi: “Azbaski, Ovrupo ila savdo qiladurgan kishini(ng o‘zi) avval o‘n sana zamona ilmi o‘qumog‘i lozim.. Maktabimiz,

do‘konimiz, korxonamiz, madrasamiz va har nimarsamizni zamoncha islohi lozimdur. Bir usukuna, do‘kon va saroyni ishlatmoqga ham ilmi zamoniy va zamona shumlig‘ini bilmoq lozim” [3. B. 386].

Taraqqiyparvar ilm olish uchun yoki mahoratli bironta kasbni egallash uchun imkoniyat bilan bir qatorda pul, mablag‘ bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Shuning uchun mahalliy boylarimizdan ilm va millat uchun, taraqqiyot uchun najot kutadi.

Behbudiy millatlarning boylariga murojaat etib, ularning o‘qish va o‘qitishga e’tibor qaratishlarini istaydi. Millatning kelajagi bo‘lgan yoshlarning tarbiyasi kelajakning mevasi bo‘lishini ularga qayta-qayta ta’kidlaydi. Aytadiki: “Bu ketishni oxiri yomondur, o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun. Butun Turkistondan o‘n boy yilinda ming so‘mdan bersa, 25 bola uchun Toshkandda “diniy va zamoniy” bir “pansiun”, layliy va nahoriy 5 mukammal maktab bino bo‘lub, har yil hukumat maktabinda 50 bola tayyorlaydur” [3. B. 386]. Shuningdek, yurt boylariga qarata: “Al-on millatimiz boylaridan shuni ko‘zda tutar, xaloyiqni barbod etaturgan to‘ylarni emas” [3. B. 386] deb ularga katta umid bog‘laydi. Qolaversa, ularni insofga va saxovat ishlarini amalga oshirishga chaqiradi. Ko‘rinadiki, maqolaning qadri bugungi kunda ham dolzarbdir.

Behbudiyning “Millatlar qanday taraqqiy etarlar” [3. B. 389–391] maqolasi “Samarqand” gazetasining 1913-yil 30-iyul sonida chop etilgan. Muallif maqolada dunyoda millatlarning taraqqiy eishlari va mahalliy millatlarning taraqqiy etmasligining sabablarini ko‘rsatib bergan.

Xulosa

Ko‘rinadiki, Behbudiy ko‘targan masalalar Turkiston o‘lkasida millatning kelajagi uchun jasoratli fikrlar edi. U masalani qiyoslash orqali millatning boshqa millatlardan o‘rganishi kerak bo‘lgan tomonlariga e’tibor qaratib, kamchiliklarini ham ochiq-oydin o‘rtaga tashladi. O‘z yurtining taraqqiy qilishini istadi, uning “hammol va gadoy” bo‘lib, mustamlakada ezilishini hech ham istamas edi. O‘zining ko‘ksini Chor tizimning milliy zulm siyosatiga qalqon qilib bo‘lsa ham maqsadi uchun kurashdi. Milliy g‘oya yo‘nalishini ishlab chiqdi, amalda qo‘lladi. Millatning kelajagi uchun bu g‘oyaning zarurligini badiiy adabiyot, dramaturgiya, publitsistika sohalariga mansub asarlari orqali talqin qildi. Shuningdek, shogirdlari ongi va shuuriga ham millat dardi-tashvishi uchun fidoyilikni singdirdi. Hoji Muin aytganidek, “Suvsiz baliq tirik qolmagani kabi ilmsiz, ittifoqsiz millatlarning yashay olmasligi tabiiydir” [9. Б. 61–62]. Yuqoridagi fikrlar bugungi kunda ham o‘z qadrini yo‘qotgan emas, ilm o‘rganish va u orqali taraqqiyotga erishish g‘oyasi dolzarb bo‘lib qolaveradi.

Adabiyotlar:

1. *Қосимов Б.* Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 461 б.
2. *Шарафиддинов О.* Истибдод қурбонлари // Тафаккур, 2000. – №3. – Б. 66-80.
3. *Беҳбудий М.* Эҳтиёжи миллат. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 510 б.
4. Abdurashidov Z. Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatiga chizgilar // https://m.daryo.uz/2021/01/21/-mahmudxoja-behbudiy-faoliyatiga-chizgilar-20-yanvar-ozbek-jadidlari-otasining-tavallud-kuni/ (15.07.2022).
5. *Беҳбудий М.* Миллат ислоҳияси. // Самарқанд, 1913 yil, 7 май.
6. *Каримов Н.* Беҳбудий – жадид театрининг назариётчиси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2019. – №4. – Б. 136-138.
7. *Беҳбудий М.* Миллат вазифаси. “Улфат” газетаси, 1906 йил, 6, 20 апрель.
8. *Ражабзода Н.* Ибтидоий мактабларимизнинг тартибсизлиги ёхуд тараққиётнинг йўли . – Тошкент: Академия, 2001. – 98 б.
9. *Муин Ҳ.* Истиқлол қайғуси. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 61-62.
10. *Беҳбудий М.* Эҳтиёжи миллат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 278 б.

INTERPRETATION OF NATIONAL AND NATIONAL IDEA IN BEHBUDI'S WORKS

N.H. Avazov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2022. 5(65). 61-66.

[1]Tashkent State Institute of Art and Culture, M.Ulugbek district, Yalangoch 127-A house, 100164 (Uzbekistan). E-mail: uzdsm@madaniyat.uz

Keywords: drama, nation, modern, national, press, Turkestan, development, country, formation, purpose, enlightenment.

The article shows that the progressive Mahmudhoja Behbudi established a school in the Turkestan region, organized a press for the development of the nation, and was the first to develop a national idea by writing the drama "Padarkush" in the country. He made a great contribution to the emergence and formation of the Jadid movement, Jadid literature, and dramaturgy. The purpose of the article is to show the place of Mahmudhoja Behbudi in the development of the nation, and the idea of preventing illiteracy is conveyed to the reader.

For the study of the interpretation of the idea of nationality and nationality in the work of Behbudiy, the works of the progressive “Padarkush” and artistic publicist: “The need of the nation”, “How nations develop”, “The task of the nation”, “Appeal to the nation”, “Who Reforms The Nation” are subject to analysis.

The jadids carried out extremely comprehensive efforts for national ma cultural upsurge, freedom and independence in relation to the injustices in the Turkestan territory. They worked in their actions, faithful to the qualities of Kindness, Harmony, humanity inherent in the land. In their idea, the slogan “The Truth will be given and not given” was used, which Behbudi threw in the middle.

Mahmudhoja Behbudi as a caravan of jadids in the interpretation of national idea, nation and nationality issues, carried out the problem step by step, leaving for his short life the spiritual heritage necessary for the nation.

Behbudi had the main goal of creating a work for the theater and organizing the theater in the implementation of the National idea as the need of the nation. He also had the goal of showing the nation that ignorance through the theater is a tragedy, a disaster. This was the next way Behbudi fought for the National idea. Formed the basis of the drama of the National idea – Behbudi.

The issues raised by behbudi were courageous thoughts for the future of the nation in the Turkestan land. By comparing the issue, he drew attention to the sides of the nation that it should learn from other nations, and also clearly put forward its shortcomings. He wanted the local nation to prosper, making it” hammam and gadoy " and not wanting to be crushed in the colony at all. His own chest was fought for the purpose of the Tsarist system, albeit as a shield to the wrap-up, national policy of oppression. Developed the direction of the National idea. Applied in practice. He interpreted the need for this idea for the future of the nation through the genres of literature, drama, works of art, political journalism. The above points have not lost their value even today, the idea of studying science and achieving progress through it remains relevant.

References:

1. Qosimov, B. (2006) *Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti* [Uzbek literature of the period of national renaissance]. Toshkent: Ma'naviyat.

2. Sharafiddinov, O. (2000). Istibdod qurboni [Victim of totalitarianism]. *Tafakkur*. 3. P. 66-80.

3. Behbudiy, M. (2018). *Ehtiyoji millat*.Tanlangan asarlar [Needy nation].Toshkent: Akademnashr.

4. Abdurashidov, Z. (2021). *Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatiga chizgilar* [Drawings on the activities of Makhmudhozha Bekhbudi]. [Online]. URL: https://m.daryo.uz/2021/01/21/mahmudxoja-behbudiy-faoliyatiga-chizgilar-20-yanvar-ozbek-jadidlari-otasining-tavallud-kuni/ (Date of access: 15.07.2022)

5. Behbudiy, M. (1913). *Millat islohiyasi* [National reform]. Samarkand. May 7.

6. Karimov, N. Behbudiy – jadid teatrining nazariyotchisi [Behbudi is a theoretician of modern theater]. *O‘zbek tili va adabiyoti*. 4. P. 136-138.

7. Behbudiy, M. (1906). *Millat vazifasi* [The task of the nation]. Ulfat. Aprel 6, 20.

8. Rajabzoda, N. (2001). *Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiyotning yo‘li* [The chaos of our primitive schools or the path of progress]. Toshkent: Akademiya.

9. Muin, H. *Istiqlol qayg‘usi*. [Sadness of independence]. Toshkent: Ma'naviyat.

10. Behbudiy, M. (2006). *Ehtiyoji millat* [Needy nation]. Toshkent: Ma'naviyat.

Muallif haqida ma’lumot:

AVAZOV Normurod Hakimovich – filologiya fanlari nomzodi, Toshkent davlat san’at va madaniyat instituti Til va adabiyot kafedrasi dotsenti. E-mail: normurod.avazov.63@mail.ru